



Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-avgust)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent viloyati korxonalari tomonidan 40,2 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 102,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (86,2 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 97,9 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 102,7 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 3,8 % ga o'sishi hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 2,0 % ga kamayishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1540,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,8 % ini tashkil etdi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tabiiy gaz qazib olish 22,8 % ga, kaolin 72,8 % ga oshgan bo'lsa, shag'al 63,1 %, chaqiq tosh - 15,9 % ga ko'mir qazib olish 8,3 % ga, pasaygan.





Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Ko'mir, <i>ming t.</i>	2196,2	2013,5	-182,7
Tabiiy gaz, <i>mln. kub.m.</i>	168,4	206,8	38,4
Chaqiq tosh, <i>ming t.</i>	287,6	241,8	-45,8
Shag'al , <i>ming t.</i>	104,6	38,6	-66,0
Kaolin, <i>ming t.</i>	126,5	218,6	92,1



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020-yilning yanvar-avgustoylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34657,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,2 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2019-yilning

yanvar-avgust oylarida - 0,8 %), o'рта-yuqori texnologiyali - 11,8 % (12,0 %), o'рта-quyi texnologiyali – 51,2 % (51,6 %) va quyi texnologiyalisi - 21,9 % (35,6 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 8,5 % (2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 99,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 42,9 % (2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 7,7 % (2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 12,6 % (2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 7,4 % (2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,1 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020-yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 220,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 26,8 % ga o'sgan), 124,4 mln. litr pivo (23,3%ga o'sgan), 154,3 ming dona avtomobil dvigaitellari (17,8%) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. O'simlik yog'i 4,3 ming tonna (-8,4%), kalava ip 19,9 ming tonna (-18,3 %), ishlab chiqarilib, o'sish sur'atlari pasayishi kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoatmahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	173,6	220,1	46,5
O'simlik yog'i (tozalangan), <i>ming t.</i>	4,7	4,3	-0,4
Pivo, <i>ming l</i>	100857,1	124367,4	23510,3
Kalava ip, <i>ming t</i>	24,3	19,9	-4,4
Paxta tolasi, <i>ming t.</i>	10,7	24,9	14,2
Paxta chigiti, <i>ming t.</i>	17,6	49,7	32,1



Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Portlandsement, <i>ming t.</i>	3255,8	3137,9	-117,9
Sementklinkerlari, <i>ming t</i>	2552,6	2590,2	37,6
Etilspirti, <i>ming l.</i>	8841,6	9129,4	287,8
Kultivatorlar, <i>dona</i>	1298	573	-72,5
Avtomobil dvigiteLLari, <i>ming dona.</i>	131,0	154,3	23,3

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, ammoniy sulfat (2019-yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan 111,5 %), karbomid (114,3 %), mineral o'qitlar (103,3 %) mahsulotlarida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, sulfat kislotasi (2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 97,5 %), mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3861,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (9,6 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,0 % ga pasayganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	12286,2	11342,6	-943,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2314,3	2541,1	226,8
Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, ming kub. m.	168426,0	206832,0	38406,0




**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 147,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.



2019- yil,
% da



2020- yil,
% da




**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	3364,9	23994,2	20629,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlas hxizmatlar, mln.so'm	57078,6	60688,7	3610,1



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8273,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 6,9 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 20,6 % ni tashkil etdi.




2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 51,0 % dan 46,0 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 13,8 % (2019-yil yanvar-avgust oylarida 9,3 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniga to'g'ri kelib, 3,7 % ni, shuningdek, Qibray tumani 2,1 % ni, Chirchiq shahri 1,8 % ni, Ohangaron shahri 2,3 % ni hamda Angren shahri 1,7 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (106,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Ohangaron (158,7 %), Bekobod (193,4 %), Angren (134,5 %) shaharlarida, Quyichirchiq (204,5 %) hamda Qibray (112,7 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Toshkent viloyati	8 273,7	20,6	106,9
Shaharlar:			
Nurafshon	100,1	0,2	98,2
Olmaliq	200,9	0,5	79,5
Angren	706,1	1,8	134,5
Bekobod	175,8	0,4	193,4
Ohangaron	921,6	2,3	158,7
Chirchiq	712,9	1,8	103,3
Yangiyo'l	189,8	0,5	87,4
Tumanlar:			
Oqqo'rg'on	301,6	0,8	153,0
Ohangaron	104,4	0,3	76,8
Bekobod	83,9	0,2	92,8
Bo'stonliq	326,1	0,8	95,9
Bo'ka	72,3	0,2	64,3
Zangiota	1 492,5	3,7	108,0
Yuqorichirchiq	447,3	1,1	85,3
Quyichirchiq	209,3	0,5	204,5
Qibray	844,2	2,1	112,7
Parkent	158,6	0,4	89,9
Piskent	171,5	0,4	88,3
O'rtachirchiq	154,8	0,4	58,8
Chinoz	146,0	0,4	68,1
Yangiyo'l	236,9	0,6	106,1
Toshkent	517,1	1,3	90,0

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yuqorichirchiq tumaniga to'g'ri kelib, 60,5 %, shuningdek, Piskent tumani 72,3 % ni, Zangiota tumani 64,9 % ni hamda Angren shahri 56,8 % nitashkil etdi.




Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Toshkent viloyati	3 853,1	46,6	120,9
Shaharlar:			
Nurafshon	32,5	32,5	98,9
Olmaliq	57,0	28,4	74,4
Angren	400,9	56,8	158,5
Bekobod	52,3	29,7	154,5
Ohangaron	424,1	46,0	167,5
Chirchiq	207,2	29,1	121,9
Yangiyo'l	54,3	28,6	74,8
Tumanlar:			
Oqqo'rg'on	193,9	64,3	151,0
Ohangaron	44,2	42,3	86,4
Bekobod	40,4	48,1	93,2
Bo'stonliq	185,9	57,0	101,2
Bo'ka	34,2	47,3	75,2
Zangiota	969,3	64,9	130,8
Yuqorichirchiq	270,7	60,5	107,4
Quyichirchiq	84,1	40,2	183,9
Qibray	268,2	31,8	126,9
Parkent	60,3	38,0	105,5
Piskent	124,0	72,3	93,8

O'rtachirchiq	60,1	38,8	70,5
Chinoz	46,7	32,0	110,8
Yangiyo'l	99,8	42,1	109,1
Toshkent	143,1	27,7	92,7

Hududlar kesimida no oziq-ovqat mahsulotlar iishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bekobod shahriiga to'g'ri kelib, 61,5 % ni, shuningdek, Chirchiq shahri 62,8 % ni, Olmaliq shahri 67,5 % ni, Ohangaron shahri 45,2 % ni hamda Toshkent tumani 46,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, no oziq-ovqat mahsulotlar iishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Bekobod shahri (213,7 %), Ohangaron shahri (187,0 %), Chirchiq shahri (116,3 %) hamda Quyichirchiq (223,8 %) tumanida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha no oziq-ovqat mahsulotlar iishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Toshkent viloyati	3 383,4	40,9	112,0
Shaharlar:			
Nurafshon	57,5	57,5	108,3
Olmaliq	135,7	67,5	96,8
Angren	262,2	37,1	127,3
Bekobod	108,2	61,5	213,7
Ohangaron	416,5	45,2	187,0
Chirchiq	447,9	62,8	116,3
Yangiyo'l	98,2	51,7	97,4
Tumanlar:			
Oqqo'rg'on	96,8	32,1	146,2
Ohangaron	54,2	51,9	86,5

Bekobod	42,9	51,1	100,2
Bo'stonliq	93,8	28,8	98,4
Bo'ka	37,1	51,3	70,8
Zangiota	367,1	24,6	93,7
Yuqorichirchiq	152,7	34,1	82,3
Quyichirchiq	108,8	52,0	223,8
Qibray	217,5	25,8	115,7
Parkent	71,6	45,2	115,9
Piskent	78,8	46,0	131,7
O'rtachirchiq	84,2	54,4	63,7
Chinoz	72,8	49,9	70,8
Yangiyo'l	137,6	58,1	106,5
Toshkent	241,1	46,6	98,5



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 9023,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 22,4 % ni tashkil etdi.



**Toshkent viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**


	2020-yil yanvar-avgust mlrd.so'm	Fizikhajm indeksi, % da
Toshkent viloyati	40 207,0	102,0
Shaharlar:		
Nurafshon	554,1	100,1
Olmaliq	15 108,0	101,7
Angren	2 846,3	100,4
Bekobod	4 225,1	97,2
Ohangaron	2 129,1	110,6
Chirchiq	3 009,5	99,4
Yangiyo'l	374,7	83,8
Tumanlar:		
Oqqo'rg'on	454,9	120,9
Ohangaron	258,6	91,5
Bekobod	179,6	105,0
Bo'stonliq	972,5	86,1
Bo'ka	115,9	79,0
Zangiota	3 707,8	103,9
Yuqorichirchiq	871,9	93,7
Quyichirchiq	357,5	125,3
Qibray	2 555,0	101,4
Parkent	199,2	98,2
Piskent	201,5	99,0
O'rtachirchiq	374,1	101,9
Chinoz	309,4	70,5
Yangiyo'l	603,2	96,0
Toshkent	799,0	98,6



Toshkent viloyati hududlar kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Toshkent viloyatisanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Chinoz (2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 70,5 %), Bo'ka 79,0 %), Ohangaron (91,5 %), tumanlarida hamda Yangiyo' lshaharida (83,8%) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.


Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da	Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da
---	---



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Ohangaron (2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 158,7 %), Bekobod (193,4 %), Chirchiq (103,3 %), Angren (134,5 %) shaharlarida, Quyichirchiq (204,5 %), Qibray (112,7 %), Oqqo'rg'on (153,0 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.



Toshkent viloyatining jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Olmaliq shahar (viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmning 37,6 % ulushini), Bekobod shahar (10,5 %), Angren shahar (7,1 %), Chirchiq shahar (7,5 %), Zangiota tumani (9,2 %), Qibray tuman (6,4 %), hissasiga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich esa Bo'ka (0,3 %), hamda Parkent (0,5 %), Ohangaron (0,6 %), Bekobod (0,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Olmaliq (114804,8 ming so'm), Bekobod (43959,8 ming so'm), Ohangaron (56110,4 ming so'm) tashkil etib, Toshkent viloyati darajasi ko'rsatkichidan (13621,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2453,1 ming so'm bo'lgani holda, Ohangaron shahrida – 20631,8 ming so'mni, Chirchiq shahrida – 4002,9 ming so'mni, hamda Zangiota – 6004,6 ming so'mni, Toshkent 2489,4 ming so'mni, Qibray 3594,8 tumanlarida ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020-yil yanvar-avgust oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Toshkent viloyati	13 621,4	2 453,1
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	11 351,7	1 781,5
Olmaliq	114 804,8	1 437,1
Angren	15 055,6	3 163,9
Bekobod	43 959,8	1 624,9
Ohangaron	56 110,4	20 631,8
Chirchiq	19 082,6	4 002,9
Yangiyo'l	6 178,3	2 707,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	4 322,1	2 548,4
Ohangaron	2 694,8	993,1
Bekobod	1 137,7	526,0
Bo'stonliq	5 740,8	1 668,6
Bo'ka	920,2	561,7
Zangiota	18 722,5	6 004,6
Yuqorichirchiq	6 417,1	2 915,5
Quyichirchiq	3 304,8	1 706,3
Qibray	12 710,1	3 594,8
Parkent	1 281,4	949,4
Piskent	1 994,1	1 976,9
O'rtachirchiq	2 493,8	938,5
Chinoz	2 306,9	1 272,3
Yangiyo'l	2 864,7	1 093,3
Toshkent	4 412,0	2 489,4



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020-yil yanvar-avgust oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7930,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,7 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bo'ka (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Quyichirchiq (63,7%), Parkent (89,8%), O'rtachirchiq (68,6 %), Ohangaron (67,9 %), tumanlarida hamda Ohangaron (56,4 %), Yangiyo'l (46,7 %) shaharlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Olmaliq (1,2 %), Bekobod (4,1 %) va Chirchiq (14,6 %) shaharlarida hamda Zangiota tumanida (29,5 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Toshkent viloyatidafaoliyat yuritayotgan yangi
tashkil etilgan sanoat korxonalari**
(2020-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 8219 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1251 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 15,2 %) Zangiota tumaniga, 756 tasi (9,2 %) Qibray tumaniga, 690 tasi (8,4 %) Toshkent tumaniga, 509 tasi (6,2 %) Yangiyo'l tumaniga, 437 tasi (5,3 %) Chirchiq shahriga to'g'ri kelmoqda.



Sanoat statistikasi
bo'limi

Tel.: (71) 202-86-66